

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA
MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT
O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

**«O‘ZBEK TILI TARAQQIYOTI VA XALQARO
HAMKORLIK MASALALARI»**

mavzusidagi

xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari

2021-yil 18-oktabr

TOSHKENT- 2021

UO‘K 811.512.133’0
KBK 81.2 O‘zb
S 60

«O‘zbek tili taraqqiyoti va xalqaro hamkorlik masalalari»: xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari / Mas’ul muharrir – **Sh. Sirojiddinov.**
-T.: “Nodirabegim” nashriyoti, 2021. - 420 bet.

Mas’ul muharrir:

Shuhrat Sirojiddinov,

filologiya fanlari doktori, professor

To‘plab, nashrga tayyorlovchilar:

To‘lqin Tog‘ayev

filologiya fanlari nomzodi, dotsent

Botir Tojiboyev

filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent

Ushbu to‘plamda “O‘zbek tili taraqqiyoti va xalqaro hamkorlik masalalari” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjumanga yuborilgan maqolalar jamlangan. To‘plamda o‘zbek tili taraqqiyoti va xalqaro hamkorlik, amaliy tilshunoslik va lingvodidaktika muammolari, til ta’limi, o‘zbek tilining xorijda o‘qitilishi va o‘zaro hamkorlik, madaniyatlararo muloqotda o‘zbek tilining o‘rni, o‘zbek tilini davlat tili sifatida har tomonlama rivojlantirish, o‘zbek tili va turkiy tillar tarixi, o‘zbek tilining boshqa turkiy tillar bilan o‘zaro aloqalari tadqiqi, lug‘atshunoslik, atamashunoslik, til korpusi kabi o‘zbek tilshunosligining nazariy va amaliy masalalari haqida so‘z yuritiladi.

Kitob filolog mutaxassislar, ilmiy tadqiqotchilar, magistratura va bakalavriyat talabalari, shuningdek, keng o‘quvchilar ommasiga mo‘ljallangan

ISBN: 978-9943-7317-6-9

© “Nodirabegim” nashriyoti, 2021

3. Tarixiy manbalarda qoʻllangan frazemalarning tarjimadagi muammolarini oʻrganish (Muhammadiyeva).

Shu bilan birga frazeologik izlanishlarga tanqidiy qarash orqali shuni aytish mumkinki, frazeologiyaga oid ilmiy ish uchun mavzu tanlashda sistemaga rioya qilinmagan, monografik tadqiqotlarga kam eʼtibor qaratilgan, iboraning ayrim struktural tiplari koʻproq sinxron holatiga koʻra oʻrganilgan, iboralarning tarixiy taraqqiyoti eʼtibordan chetda qolib kelmoqda. [B.Yoʻldoshev] Oʻzbek tilshunoslarining frazeologiyani oʻrganish borasidagi yutuqlarini qayd qilgan holda bugungi kun tilshunoslarining oldida quyidagi muammolar oʻz yechimini kutmoqda:

- qoʻlyozma manbalarimizni davrlashtirgan holda lingvistik jihatdan tadqiq etish;
- manbalardagi frazemalarni yigʻish va jonli til bilan qiyoslagan holda oʻrganish. Bunday qiyosiy tahlillar natijasida tilimizdagi ayrim eskirgan leksemalar qatlami qayta tiklanishi va hozirgi oʻzbek tili leksikasi boyishiga hissa qoʻshishi mumkin;
- tarixiy frazemalarning izohli lugʻatini tuzish. Bunday lugʻatlar tilimiz taraqqiyotining maʼlum bosqichdagi leksik kontingentini aniqlash imkonini beradi;
- ijodkorlar asarida qoʻllangan frazemalar statistikasini olib borish, maʼno qirralarini tahlil qilish. Frazemalarning ayni usulda oʻrganilishi sinonimik iboralar qatorini oshiradi;
- tarixiy frazemalarni komponent tadqiqi qilish. Bu orqali frazemalarning shakllanishi, etimologiyasi yuzasidan muvaffaqiyatli natijalarga erishish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:

1. Ashirboyev S. Qutbning “Xusrav va Shirin” dostoni va oʻzbek adabiy tili. -T.: Oʻqituvchi, 1997. 22- bet.
2. Фазылов Э. Староузбекский язык. Хорезмийские памятники XIV века. -Т. I-II. –Т.: Фан, 1966-1971. Т.I. 1966. -652с. Т.II. 1971. -383с
3. Рахматуллаев Ш. Ўзбек фразеологиясининг баъзи масалалари, -Т.: 1966.
4. Yoʻldoshev B. “Layli va Majnun” dostonida frazeologizmlar. Maqola. Oʻzbek tili va adabiyoti jurnali. -T.: 2010, 2-son.
5. Shomaqsudov A. Muqimiy satirasining tili. -T.: 1970. 62-95-b.

Iqon shevasida qaratqich va tushum kelishiklari shakllari forms of the genitive and accusative cases in ikan dialekt

Xidrallyeva Zoxira Riskulovna*

Annotation. This article discusses the affixes of the genitive and the instrumental cases, their phonetic variants and features used in the Ikan dialect

Key words: *Oghuz dialect, Ikan dialect, literary language, phonetic variants, labial vowels, labial harmony, genitive case, instrumental case, affixes.*

Oʻzbek shevalari qaratqich hamda tushum kelishiklari koʻrsatkichlarining xilma-xilligi va miqdoriy jihatdan koʻpligi bilan boshqa turkiy tillar va ularning shevalaridan farq qiladi. Shu bilan birga ularning shevalarda qoʻllanish doirasi ham turlicha. Jumladan, Iqon shevasida ham

*Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat oʻzbek tili va adabiyoti universiteti katta oʻqituvchisi,
E-mail: zaxira.999@gmail.com

qaratqich hamda tushum kelishiklarining adabiy til va boshqa o'zbek shevalari bilan umumiy xususiyatlarga ega bo'lishi bilan birga o'ziga xos o'zgachaliklari ham mavjud.

O'zbek tilining aksariyat shevalarida qaratqich va tushum kelishiklari bir xil affiks (-ni)ga ega bo'lib, ular shakl jihatidan farqlanmaydi. Masalan: Toshkent, Farg'ona, Qarshi, Buxoro, Surxondaryoning "y" lovchi shevalari [Ashirboyev, 2021: 50] va h.k.

Iqon shevasida qaratqich va tushum kelishiklari alohida ko'rsatkichlarga ega bo'lib, ularning turli fonetik pozitsiyalarda fonetik variantlarini ko'rib chiqamiz.

Qaratqich kelishigi. Shevada singarmonizm qonuni amal qilganligi sababli qonunga muvofiq affikslarning turli shakllari, ya'ni old qator, orqa qator, lablangan, lablanmagan variantlari qo'llanadi: *-niñ, -niñ, -iñ, -iñ, -üñ, -uñ, -ñ*.

-niñ shakli unli bilan tugagan yumshoq asosga qo'shiladi: *Tüjäniñ qujruyï je:rgä täggä:ndä. Mä:länin ba:šida: ö:j* (Mahallaning boshidagi uy). *Ikkisinin ortasidin qil ö:tmäjdi.*

-niñ shakli unli bilan tugagan qattiq asosga qo'shiladi: *A:naniñ ba:yrï a:lamdin ke:ñ. A:naniñ je:gisi kä:gändä, ba:lanin čiškisi kä:lädi. Dalanin ba:šida kä:zäk tikibo:tiripti.*

-iñ shakli undosh bilan tugagan yumshoq asosga qo'shiladi: *biziñ ö:j, siziñ ma:l, inimiñ ba:lasï, siñnimiñ ba:ji. Ba:γda: si:riniñ ša:xïya ursa:ñ, ta:γda: si:riniñ tujayï sirqirajdi* (Bog'dagi sigirning shoxiga ursang, tog'dagi sigirning tuyog'i sirqiraydi). *Ba:zar ba:ryan jigitiñ ba:ši a:man kä:sä bäs. I:tiñ tä:ñi pit* (Itning tengi bit).

-iñ shakli undosh bilan tugagan qattiq asosga qo'shiladi: *Ö:zi jo:γin, kö:zi joq. To:qqiz qi:zin to:lyayï bi kä:di.* (Juda ko'p ishning bir paytda tiqilinch bo'lishi). *A:jamiñ jïylayanïya čidaja:mma:dim.* (Onamning yig'laganiga chiday olmadim).

-üñ shakli tarkibida lab unlisi mavjud bo'lgan, undosh bilan tugagan yumshoq asosga qo'shiladi: *Ü:nün ö:šsi* (Ovozing o'chsini). *Kümün qi:zisa?* (Kimning qizisan?) *Kümün kä:lini?* (Kimning kelini?).

-uñ shakli tarkibida lab unlisi mavjud bo'lgan, undosh bilan tugagan qattiq asosga qo'shiladi: *Quduyun i:čigä čü:šüp ke:tgänsä:nä, kö:rinmäjsä.*

Qaratqich kelishigining *-iñ, -iñ, //-üñ, -uñ* shakllarining qo'llanishi "Qutadg'u bilig", "Devonu lug'atit turk" asarlarida *biz, siz, kim* olmoshlari bilan chegaralanganligi, eski o'zbek tili taraqqiyotining ma'lum davrlari bilan chegaralangan yoki ayrim so'zlar uchungina xos bo'lganligi, Orxun-Enasoy va qadimgi uyg'ur yodgorliklarida esa, ancha keng qo'llanganligi haqida ma'lumot beriladi [Abdurahmonov, Shukurov, Mahmudov, 2008, 85]. Iqon shevasida ham qaratqich kelishigining *-üñ, -uñ* affiksli varianti siyrak uchraydi, lekin *-iñ, -iñ* variantlari juda faol.

Iqon shevasida *-üñ* qaratqich kelishigi affiksi varianti *kim* olmoshiga ham qo'shilishi qayd qilindi. Ma'lumki, bunday qo'llanish tilimiz tarixida uchrashi yuqorida keltirildi va "Tafsir"dan keltirilgan: *Kimün oylisen?* jumlasida qayd etildi. Bunday qo'llanish, labial singarmonizm talabiga ham zid bo'lib, uning shu kabi, ya'ni tarkibida lablangan unlilar bo'lmagan so'zlarga qo'shilishi boshqa misollarda uchramaydi, lekin bu faktni (norma bo'lmasa ham) tan olmaslik mumkin emas, chunki til tarixiga oid faktni Iqon shevasida qisman tasdig'ini topmoqda. Shu bilan birga boshqa bir qonuniyatni vujudga keltirgan, ya'ni *-üñ* tarkibidagi *ü* unlisi *kim* so'zidagi unliga ta'sir etib, uning lablanishini hosil qilgan: *kümün ba:lasï, kümün ö:ji, kümün:qi:zisa* jumllarida umlaut hodisasi yuzaga kelgan. Bu xususiyat boshqa shevalarda kuzatilmaydi.

Shevada *u, bu, shu* ko'rsatish olmoshlari qaratqich kelishigini qabul qilganda, bizningcha, tejamlilik tamoyiliga ko'ra *-n* shaklida ifoda etiladi. Masalan: *Un(m) bilän sö:lläšmägänimgä ra:sa o:di* (U(ning) bilan gaplashmaganimga ko'p bo'ldi). *Bun(m) bilän e:dišip a:bro ta:pmajsa* (Bu(ning) bilan aytishib, obro' topmaysan). *Šun(m) bilän Pa:tmani qa:jtip kö:rmädim* (Shuning bilan Fotimani qaytib ko'rmadim).

Men, sen kishilik olmoshlariga qaratqich kelishigi *-ning* affiksi qo‘shilganda, mening ~ *me:η*, sening ~ *se:η* tarzida ifodalanadi: *me:η e:šim*, *se:η e:šiq*; *me:η ba:lam*, *se:η ba:laη*; *me:η qo:lim*, *se:η qo:liη* kabi.

Tushum kelishigi. Tushum kelishigi shakllarining o‘zbek tili va uning shevalarida *-ni*, *-ni*, *-di*, *-di*, *-ti*, *-ti*, *-i*, *-i*, *-n* variantlari mavjud [Решетов, Шоабдурахмонов, 1978: 135]. Shu bilan birga, uning ba‘zi shevalarda *-nu*, *-nü*// *-du*, *-dü*// *tu*, *-tü* lablangan variantlari; Toshkent, Parkent, Namangan kabi shevalarda esa *-ši*, *-zi*, *-si*, *-ri*, *-yi* kabi 20dan ortiq assimilyativ variantlari borligi qayd qilingan. Iqon shevasida qo‘llanishiga ko‘ra tushum kelishigining *-ni*, *ni*//*-n* affiksli fonetik variantlarinigina kuzatish mumkin.

-ni affiksi barcha o‘zbek shevalarida qo‘llanadi, lekin uning asosga qo‘shilish xususiyati turlicha. *-ni* affiksi Toshkent, Farg‘ona kabi shevalarida har qanday unilardan so‘ng qo‘shilsa, Iqon shevasida singarmonizm qonuniyatiga ko‘ra old qator unli yoki undosh bilan tugagan yumshoq o‘zakli so‘zlarga qo‘shiladi: *kö:zini jumdi*, *bä:tini ju:di*, *ä:käžimni kö:rdim*, *künni ö:tkizdi*, *je:rni hä:jdädi*...

-ni affiksi “j”lovchi shevalarda faqat unli bilan tugagan qattiq asosga qo‘shilsa, shevada orqa qator unli yoki har qanday undosh bilan tugagan qattiq o‘zakli so‘zlarga qo‘shiladi: *qo:jni so:jdä*, *da:lanä kö:rmägän*, *ta:lnä kä:sti*... Ya’ni affikslar asosning qattiq, yumshoqligiga ko‘ra tanlanadi. *U:rya:ni u:n a:ši*, *sö:kkäni sö:k a:ši*. *Ba:lanä ja:šdin*, *xa:tinni ba:šdin*. *Kö:kräginä a:ndaba bilan su:vayan*. *Je:tim ö:z na:nini je:jdi*, *kiši tü:rtkisini ä:štädi*. *A:yo:jlärni a:ηratqan*, *bö:z ö:jlärni bo:šatqan*, *ba:lam*. *Ra:jim je:znämnä ni de:p ča:qiradi?* *Ba:lanä a:baqta de:di-yu*.

Ayrim manbalarda Iqon shevasida ham tushum kelishigining *-n* shakli qo‘llanishi ta’kidlangan [Ишраев: 1981, 23-24]. Haqiqatan, asosiy shakllaridan biri sifatida turkiy tillarda qadimdan qo‘llanib kelgan [Abdurahmonov, Shukurov, Mahmudov, 2008: 88] *-n* shakli shevada yo‘qlovlar, lapar va terma qo‘shiqlarda saqlanib qolganligini ko‘rishimiz mumkin: *Me:ma:n kä:sä qo:j semizän so:jdärip*, *me:ma:n qiyan žigärim*; *Jetim – jetim de:diηnä:jdi*, *jetim na:nin yediηnä:jdi*; *Pä:rzänliğin ö:jän kö:rsän gü:lista:n*, *be:pä:rzäntiη ö:ji qu:ryaj gö:rista:n*.

Qizil gül qajda bitär

Ba:γ-u ba:γba:nä bo:lmasa.

E:r jigät qa:jdän a:lar sevgän ja:rän,

A:ldäda qoralayan qo:j bo:lmasa.

Leкин jonli so‘zlashuvda, ya’ni shevada ushbu shakl muomalada yo‘q.

Shevada tushum kelishigining grammatik ma’nolari va belgisi, belgisiz qo‘llanish xususiyatlari adabiy tildan farq qilmaydi: *A:q kö:jnägim kirlä:tkän*, *ma:j jü:rägim čöllä:tkän*. *O:tira:römnä tura:römdän zo:r qiya:n*. *Ja:ši kä:ltä*, *ja:ziyi kö:p*, *jigärim*. *Jer häjdädiηnä?* *Pa:xta te:rip po:diηna?* *I:š qib bo:däm*. Qiyoslang: *I:šini qi:p bo:däm*. *Bö:läsini körgä:ni kä:pti*. *O:qtu:čimäsnä kö:rdim*.

Q. Muhammadjonov tushum kelishigi haqida to‘xtalib, tushum kelishigining assimilyativ formalari Toshkent tip shevalardagidek sistemali bo‘lmasa-da, ma’lum fonetik pozitsiyada Iqon shevasida ham uchrab turishini qayd etadi: *özimmi žajimmijäm berämä uηa* / Iqon /” [Муҳаммаджонов, 1983: 1]. Ammo bu fikrni faktlar tasdiqlamaydi. Tushum kelishigining assimilyativ shakllari Iqon shevasida sporadik ravishda ham uchramadi. Biz yozib olgan materiallarga ko‘ra yuqorida keltirilgan misol shunday ko‘rinishda bo‘lishi lozim: *ö:zimiη ža:jimmijäm uηa bä:rämä*.

Xulosa shuki, Iqon shevasida o‘g‘uz lahjasiga oid qaratqich kelishigining *-in*, *-in*, *-ün*, *-uη* kabi turkiy yozma yodgorliklarda qayd etilgan qadimiy shakli saqlangan bo‘lib, bu jihatdan mazkur sheva turk, turkman, ozarboyjon tillariga yaqin turadi. Demak, Iqon shevasida

singarmonizmlı shevalarda qo‘llanayotgan bu kelıshık affıksları variantları muayyan darajada torajgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdurahmonov G‘., Shukurov Sh., Mahmudov Q. O‘zbek tilining tarixiy grammatikasi. – T.: O‘zbekiston faylasuflar milliy jamiyati, 2008. – B. 85.
2. Ashirboyev S. O‘zbek dialektologiyasi. – T.: Nodirabegim, 2021. – B. 50.
3. Решетов В.В., Шоабдурахмонов Ш. Ўзбек диалектологияси. – Т.: Ўқитувчи, 1978. – Б.135;
4. Ўзбек тили грамматикаси. – Т.: Фан, 1975. – Б. 223.
5. Ишаев А. Ўзбек тили ва адабиёти./Ўзбек тили ва адабиёти. – Т.: Фан, 1981. №2. – Б. 23-24.

Alisher Navoiyning “Munojot” nasriy asarining tili haqida ba’zi mulohazalar Some features of the syntactic structure of the prose “Munojot” by Alisher Navoi

Rahmanova Nafisa Azatbekovna*

Annotation: the article analyses some syntactic language features used in “Munojot” by A. Navoi. The attributes of Allah and the Prophet Muhammad are revealed through the use of sentences that contain a subject and a predicate. The usage of the predicates that contain verbs are explained as a symbol of human efforts repenting to Allah. Also, the aims of the used rhyming predicates are also addressed and investigated.

Keywords: “Munojot”, a predicate noun, a predicate verb, the unit of content and form, rhyming words, a compound sentence, a complex sentence

Buyuk shoir va mutafakkir Alisher Navoiy umrining so‘nggi o‘n yilida, asosan, nasriy asarlar yozish bilan mashg‘ul bo‘lgan, nasrning imkoniyatlari nazmga nisbatan kengroq ekanligini tushungani uchun ham ma’lum maqsadlar bilan nasrga murojaat qilgan. Bu maqsadlarning qanday ekanligi har bir nasriy asarning yozilish sabablari va unda qalamga olingan masalalarning mohiyatini ochishda, tilimiz imkoniyatlaridan qanday foydalanganliklarini tahlil qilish chog‘ida oydinlashadi Navoiyning nasriy asarlari janr xususiyatiga ko‘ra quyidagicha tasniflanadi:

1. Ilmiy filologik xarakterdagi asarlar: “Muhokamat ul-lug‘atayn”, “Mezon ul-avzon”, “Majolis un-nafois”.
2. Memuar-biografik xarakterga ega bo‘lgan asarlar: “Hamsat ul-mutahhayirin”, “Holoti Sayyid Hasan Ardasher”. “Holoti Pahlavon Muhammad”.
3. Ijtimoiy-falsafiy va didaktik xarakterdagi asarlar: “Mahbub ul-qulub”, “Munojot”.
4. Tarix, tasavvuf va din tarixiga oid asarlar: “Vaqfiya”, “Tarixi muluki ajam”, “Nasoyim ul-muhabbat”, “Tarixi anbiyo va hukamo”.
5. Epistolyar proza namunasi: “Munshaot”.
6. Devonlarga yozilgan “Debocha”lar.

Shubhasiz, bu nasriy asarlarning tili uslub, janr, maqsadni ochib berishda til imkoniyatlaridan foydalanish mahorati nuqtayi nazaridan bir-biridan farqlanadi. Nasriy

* Chirchiq davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi

Mahmudov Y.M.	“O‘guznamə”larda ətraf mühitə münasibət və onun qorunması məsələləri.....	340
Алашбаева Ж.Н Купаева А.К	Жүсіп Баласағұнидың «Құтадғу біліг» дастанындағы мақалдардың тәрбиелік мәні.....	346
Муҳаммадиева Д.А.	Таржималарда паремияларни ифодалаш муаммолари	350
Ashurova G.	Нутқ маданиятини эгаллашда Алишер Навоий ижодининг тутган ўрни.....	356
Холмурадова М.	“Қутадғу билиг”даги оғзаки нутқ такомилга доир қарашлар.....	360
Maxmudov R.B.	Ogahiy tarixiy asarlarida yevropa tillaridan o‘zlashgan o‘zlashmalar.....	363
Bozorova S.	“Devonu lug‘ati-t-turk”dagi “ot” komponentli maqollar tahlili.....	370
Rixsiyeva K.	Turkiy tildan rus tiliga o‘zlashgan “qap” asosli birliklarning semantik taraqqiyoti.....	374
Махаммадиев Х.Л.	Навоий дostonларида ошхона буюм ва жиҳозлари лексикаси.....	378
Жўраева Р.А.	Муқимий асарларида тиббиётга оид лексемалар.....	383
O‘razova I.A.	Frazeologizmlarning diaxron aspektda o‘rganilishi.....	387
Xidraliyeva Z.R.	Iqon shevasida qaratqich va tushum kelishiklari shakllari.....	390
Rahmanova N.A.	Alisher Navoiyning “Munojot” nasriy asarining tili haqida ba’zi mulohazalar.....	393
Begmatova M.J.	“Devonu lug‘atit turk” asaridagi harakat fe’llarining semantik tasnifi.....	397
Israilova S.T.	“Ko‘k” leksemasining ayrim semantik xususiyatlari.....	401
Quraqova Sh.D.	Alisher Navoiy asarlarida mahsulot(shirinlik) nomlarining lingvomadaniy xususiyatlari.....	404
Nuriddinova V.N.	Alisher Navoiyning “Majolis un-nafois” asaridagi antroponimlarning struktural jihatlariga doir.....	407
Ergashova G.Sh.	G‘ozi Olim Yunusov o‘zbek qipchoq lahjalari xususida.....	412
Narmanov A.X.	Alisher Navoiyning o‘zbek nutq madaniyati rivojida tutgan o‘rni.....	415